# SEKTORLARDA MUAMMOLI KREDITLARNING QAYTARILIShI MASALASIDA TANQIDIY YIGʻILISh OʻTKAZILDI



SEKTORLARDA MUAMMOLI KREDITLARNING QAYTARILIShI MASALASIDA TANQIDIY YIGʻILISh OʻTKAZILDI
Bugun, 16-noyabr kuni barcha sektor binolarida Termiz shahrida hozirgi kunda jismoniy shaxslarga ajratilgan imtiyozli kreditlardan yuzaga kelgan muammoli kredit mablagʻlarini muddatida qaytarish masalasiga bagʻishlangan tanqidiy-tahliliy yigʻilish boʻlib oʻtdi.
Oʻtkazilgan yigʻilishlarda shahar hokimi Isroil Xudoyberdiyev tomonidan sektor rahbarlari, MFY raisi va profilaktika inspektorlari, okrug rahbarlari va tijorat bank masʼul xodimlariga topshiriqlar berilib, imtiyozli ravishda ajratilgan va bugungi kunda oʻz muddatida qaytarilmayotgan kreditlarni undirish boʻyicha kunlik reja-grafik

belgilab berildi va ijrosi sektor rahbarlari nazoratiga olindi.